

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

AZIMOVA ZUHRO ISMATILLOYEVNA

**NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA OLMOSHLAR TIZIMINING
QIYOSIY-TIPOLOGIK TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

UO‘K: 811.112.2:811.512.133+81-144

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Azimova Zuhro Ismatilloevna

Nemis va o‘zbek tillarida olmosh so‘z turkumining qiyosiy-tipologik tadqiqi 3

Азимова Зухро Исмаиллоевна

Сравнительно-типологическое исследование местоимений в немецком и узбекском языках..... 25

Azimova Zuhro Ismatilloevna

A comparative typological study of the pronoun in German and Uzbek languages 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

AZIMOVA ZUHRO ISMATILLOYEVNA

**NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA OLMOSHLAR TIZIMINING
QIYOSIY-TIPOLOGIK TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3925 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdhti.uz hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuldashev Musa Muhammadovich
Filologiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich
Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ro'ziyev Yarash Bazarovich
Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning "27" mart 2026-yil soat 10 da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 02813 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "11" mart kuni tarqatildi.
(2026-yil "11" mart daqi № 5 -raqamli reyestr bayonnomasi).



N.Z. Nasrullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'. Qo'ldoshov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida ilmiy paradigmalarning o'zgarishi, lingvistik tadqiq mezonlarining takomillashuvi hamda ijtimoiy ehtiyojlarning antroposentrik yodashuv asosida hal etilishiga ahamiyat qaratilayotgani olib borilayotgan tadqiqotlarda so'z va uning semantikasi, leksik, kommunikativ xususiyatlari bugungi kunda zamonaviy ilmiy-tadqiqot mezonlari asosida chuqur tadqiq etilishiga zarurat tug'dirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, so'zlarning lingvistik tavsifiga ham ana shu talab va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda fanning ilg'or, zamonaviy yutuqlaridan foydalanib munosabat bildirish lozimligini tilshunoslik oldidagi dolzarb va kechiktirib bo'lmaz vazifalardan biriga aylantirdi. So'z turkumlari doirasida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan olmoshlarning tadqiqi va tavsifi ham bundan istisno emas. Shu bois ham, olmoshlarning lingvistik mohiyati, ularning badiiy matnda va tarjimada ifodalanishi bilan bog'liq struktur-semantik xususiyatlari, ularning grammatik kategoriyalarini aniqlashga qaratilgan ko'plab masalalar ilmiy tadqiqot ishlarining obyektiga aylanib ulgurdi. Globallashuv nemis va o'zbek tillaridagi olmoshlarning qiyosiy-tipologik tadqiqiga lisoniy zarurat sifatida yondashish masalasi ham muhimligini namoyon etmoqda. Keltirilgan ushbu omillar tadqiqotimiz mavzusi dolzarbligini va unga bo'lgan zaruratining yuqori ekanini qayd etishga asos bo'ladi.

Dunyo tilshunosligining yetakchi ilmiy markazlarida tillarni qiyoslash, chog'ishtirish, ularning universal va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, morfologik birliklarni o'rganishga oid tadqiqotlar izchil amalga oshirilayotgan bugungi kunda tilning muhim belgisi bo'lgan birliklari, ya'ni so'zlarning nutqda namoyon bo'lishi, ularning kommunikativ-funksional xususiyatlari aktuallik va virtuallik belgilari asosida kognitiv-diskursiv yondashuvda keng ko'lamda tadqiq etilmoqda. Buning sababi turli tizimli tillar materialini qiyosiy tadqiq etishga ehtiyojning ortib borayotgani bilan bog'liqdir. O'rganilishi lozim bo'lgan masalalar qatorida nemis va o'zbek tillaridagi olmosh so'z turkumining anaforik, kataforik, jins va son kategoriyalari, pronominalizatsiya va depronominalizatsiya jarayonlari qiyosiy tadqiqi ham mavjud. O'zbek tilini chet tillariga tipologik qiyoslab, universal xususiyatlarini aniqlash, ona tilimizni jahonning eng rivojlangan tillari qatoriga chiqarish, "o'zbek milliy mumtoz va zamonaviy adabiyoti namunalarini jahon tillariga sifatli o'girishga doir tarjimonlik maktablarini rivojlantirish, jahon adabiyotining eng sara namunalarini vositachi va original tillardan o'zbek tiliga tarjima qilish tizimini keng qo'llab-quvvatlash"¹ masalalari zaruratga aylanmoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida tilshunoslik masalalari qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik tadqiqotlariga yondashgan holda nemis va o'zbek tillarini qiyosiy o'rganish, ularning o'ziga xos unsurlari tadqiqiga bag'ishlangan ishlar yuzaga kelmoqda. Shu ma'noda olmoshlar tizimini kategoriyalashtirish, ikki tilga xos unsurlarni semantik, grammatik jihatdan tizimlashtirish muhim hisoblanmoqda. Bu

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>. (Murojaat sanasi: 11.11.2025.)

ona tilimizni o‘zaro boshqa tillar bilan qiyosiy o‘rganish sohasida olib borilayotgan ishlar ko‘lamining ortib borayotganida ham kuzatildi. Ta’kidlash joizki, nemis va o‘zbek tillarining grammatika bilan bog‘liq masalalari yetarlicha tadqiq qilinmaganligi, o‘zbek tilining xalqaro miqyosda o‘rganilishi, nemis tilining dunyo miqyosida ahamiyatining oshishi bu ikki tilni qiyosiy tadqiq qilish, amaliy xarakterdagi muammolarni hal qilish va tarjimadagi lingvistik muammolarni tahlil qilishni talab qilmoqda. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Biz davlat tili taraqqiyotini jahondagi yetakchi xorijiy tillar va mamlakatimizdagi turli millat vakillarining tili va madaniyatini rivojlantirish bilan bog‘liq holda ko‘ramiz”², deb alohida ta’kidlashlari, boshqa tomondan, bunday tadqiqotlar o‘zbek tilining grammatik tavsifini yanada takomillashtirish zaruratini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son, “O‘zbek tili davlat tili sifatida nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim muassalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarini o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda qator boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida olmoshlar tasnifi, funksiyalari, grammatik tuzilmasi, zamonaviy nemis tilidagi roli va ishlatilishi, stilistik va pragmatik xususiyatlari, anaforik olmoshlarning kontekstual bog‘liqligi V.G.Admoni, tarixiy jihatdan Y.Grimm, V.Grimm, G.G.Shendels, V.Duden, V.Yung, O.Bexaghel, K.Brugman, L.Hoffman, H.Paul, falsafiy yondashuv asosida V.Gumboldt, G.Kurtiyus, H.Glinz, P.Ayzenberg, semantik jihatdan G.Sifonun, H.Glyuk, G.Helbig, Y.Busha, B.Strekker, Kiparskiy P.Gallman kabi olimlar izlanishlar olib borga³. O‘zbek tilshunosligida XX asrning

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbek tili bayrami va o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 34 yilligi bilan O‘zbekiston xalqi uchun so‘zlagan nutqi// <https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/21/uzbek-language/>. (Murojaat sanasi: 27.08.2025)

³Qarang: Admoni W.G. Der deutsche Sprachbau. – Leningrad 1972. – 303 S.; Grimm J., Grimm W. Deutsche Grammatik, – Göttingen: Dieterichsche Buchhandlung, 1819–1837. – 2000 S.; Шендельс Е.И. Современный немецкий язык. Морфология. – Москва: Высшая школа, 1973. – 239 с.; Duden. Die Grammatik. Unentbehrlich

o'rtalarida olmoshlarning sintaktik xususiyatlari ilk bor ilmiy tizim sifatida A.G'.G'ulomov, leksik-grammatik xususiyatlari A.Hojjiyev, grammatik kategoriyalari va gapdagi vazifasi S.Usmonov tomonidan tadqiq qilingan. Keyinchalik, funksional-semantik xususiyatlari U.Tursunov, A.Mahmudov va R.Sayfullayeva tadqiqotlarida o'zbek tilida olmosh tushunchasining ifodalanishi masalasiga maydon sifatida yondashadi⁴.

Nemis va o'zbek tillari grammatikasini qiyosiy o'rganish Y.R.Benyaminov tadqiqotlarida keltirilganini alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir⁵.

Olmoshlarining morfologik, sintaktik, semantik tahlili, funksiyalari, stilistik va funksional ahamiyati, o'zbek va rus tillaridagi olmoshlarning qiyosiy tahlili, kommunikativ vazifasi, sintaktik va semantik funksiyalari o'rganilgan. Keyingi yillarda nemis va o'zbek tillarini qiyosiy tadqiq qilishda tillar muammolariga bag'ishlangan qator ilmiy-tadqiqot ishlar e'lon qilindi. Bu sohada tilshunos olimlar A.M.Bushuy, Sh.Safarov, A.Yaxshiyev, M.Begmatov va boshqalarning⁶ ilmiy izlanishlari e'tiborga loyiq. Olmosh so'z turkumi nemis va o'zbek tillari materiali asosida qiyosiy tadqiqotlar uchun alohida obyekt bo'lgan emas. Bu holat mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini va keng ko'lamda o'rganish zarurligini talab qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Samarqand davlat universitetining "Xorijiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb muammolari" ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi nemis va o'zbek tillarida olmoshlar tizimining qiyosiy-tipologik xususiyatlari tahlili, tarixiy, semantik, leksik, grammatik, o'ziga xosliklarini va farqlarini ochib berish, anaforik jihatdan tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

so'z turkumlari nazariyasiga doir lingvistik va falsafiy asoslarning tadqiq

für richtiges Deutsch. – Mannheim: Dudenverlag, 2005. – 1216 S.; Jung W. Grammatik der deutschen Sprache. – Leipzig: VEB Bibliographisches Institut, 1968. – 544 S.; Behaghel O. Deutsche Syntax. – Heidelberg: Winter C., 1923–1932. – 1500 S.; Brugmann K. Grundriss der vergleichenden Grammatik der indogermanischen Sprachen. Strasbourg: Trübner, 1886–1893. – 2000 S.; Hoffman L. W. de Gruyter Handbuch der deutschen Wortarten – Berlin: Walter de Gruyter Verlag, 2009. – 986 S.; Paul H. Prinzipien der Sprachgeschichte, Halle: Max Niemeyer, 1880. – 446 S.; Humboldt W. Über die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues. – Berlin: Dümmler, 1836. – 492 S.; Curtius G. Grundzüge der griechischen Etymologie. Leipzig: – Teubner, 1858. – 365 S.; Glinz H. Grammatik mit Sinn und Verstand, – München: Auer Verlag, 1978. – 288 S.; Eisenberg P. Grundriss der deutschen Grammatik. Band 1: Das Wort. – Stuttgart: Metzler, 2004. – 487 S.; Zifonun G., Hoffmann L., Strecker B. Grammatik der deutschen Sprache. – Berlin: Walter de Gruyter, 1997. – 3600 S.; Kiparsky P. Phonological Change, Dordrecht: Grundriss der deutschen Grammatik. Band 1; Das Wort. – Stuttgart: Metzler, 2004. – 487 S.; Gallmann P. Feature Sharing in DPs. Müller G., Gunkel L., Zifonun G. Explorations in nominal inflection. – Berlin/New York: de Gruyter, 2004. – 121-160 S.

⁴ Qarang: Fulo'omov A. Ўзбек тили морфологиясига кириш. – Тошкент: Ўздавнашр, 1953. – 81 б.; Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II жилд. – Тошкент: Университет, 2010. – 141 б.; Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 400 б.; Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: FTM, 2009. – 165 b.

⁵ Qarang: Бенъяминов Я.Р. Немис ва ўзбек тиллари қиёсий типологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 222 с.

⁶ Бушуй А.М. Текст как лингвистический объект // Преподавание языка и литература. Ташкент, 2003. – №4 – С.19-24.; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 89 б.; Яхшиев А.А. Немис тили оғзакни нутки тизимида фразеологик бирликларнинг семантик-дискурсив мақоми: Фил. фан. докт. ... дисс. автореф. – Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти, 2021. – 74 б.; Бегматов М. Тўлдирувчи билан ифодаланган иловали элементларнинг функциялари: Фил. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд: СамДЧТИ, 1999. – 145 б.

qilinishi bilan bog‘liq ilmiy materiallarni to‘plash, tarixiy-nazariy yondashuvlarni aniqlash, lingvistik qarashlar va metodologik yondashuvlarni, olmoshlarning semantikasini o‘rganish, ularning mazmuniy tasnifini qiyoslab, turli tillarda talqin qilinishini yoritib berish;

olmoshlarning semantik tasnifini har ikki til doirasida grammatik kategoriyalari va shakllarining morfologik ifodalanish usullarini, shakl va strukturalarini asoslash;

olmoshlarning aniqlik/noaniqlik, predmetlik/nopredmetlik, son va jins, umumiy, xususiy, deyktik, anaforik, referensial funksiyalari, pronominalizatsiya va depronominallizatsiya kategoriyalarini tavsiflashdagi rolini dalillash;

nemis va o‘zbek tillarida olmosh so‘z turkumining qo‘llanilishi, badiiy matn tarjimasidagi o‘xshashlik va nomuvofiqliklarini ochib berish.

Tadqiqotning obykti sifatida nemis va o‘zbek tillarida olmoshlar tanlandi.

Tadqiqotning predmetini nemis va o‘zbek tillarida olmoshlar tizimini qiyosiy-tipologik tadqiq qilish tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik, distributiv-kontekstual, struktural-lingvistik, funksional-semantik, korpus lingvistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nemis va o‘zbek tillarida olmoshlarning morfosintaktik, leksik, semantik ifodalanish usullari tarixiy-nazariy, qiyosiy-lingvistik qarashlar yordamida ilmiy materiallar asosida aniqlanib, ularga xos sintaktik, semantik, kommunikativ xususiyatlar dalillangan;

qardosh bo‘lmagan tillardagi olmoshlarning deyktik va anaforik funksiyalari, nemis va o‘zbek tillaridagi deyktik birliklar va anaforaning turlariga aniqliklar kiritilib, olmoshlarning umumiy va xususiy kategoriyalari, o‘xshashlik va nomuvofiqliklari ochib berilgan;

olmoshlarning semantik tasnifi ishlab chiqilgan va grammatik kategoriyalari bo‘yicha jonlilik/jonsizlik, aniqlik/noaniqlik, son/jins, predmetlik/nopredmetlik kabi shakllarining morfologik ifodalanish usullari, grammatik shakl va struktur tarkibidagi farqlanish funksional-semantik jihatlari ilk bor badiiy matnlar asosida qiyosiy tahlillar orqali isbotlangan;

pronominalizatsiya va depronominallizatsiya hodisalari nemis va o‘zbek badiiy matnlari asosida tizimlashtirilgan materiallar tarjimasida yordamida kategorial farqlanib, qiyosiy-tipologik nuqtayi nazardan yangi tamoyillarga asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Nemis va o‘zbek tillarida olmoshlar tizimining qiyosiy-tipologik tadqiqi asosida olmoshlarning struktura jihatdan turlari va xususiyatlari aniqlangan;

tahlilga tortilgan olmoshlarning leksik, grammatik, semantik ma’nolari nemis va o‘zbek tillaridagi badiiy asarlar matnlarida qo‘llanish darajasi misollar tahlili asosida ko‘rsatib berilgan;

olmoshlarning tarixiy shakllanishi, uning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlari aniqlangan va aniqlangan bu amaliy natijalarning sistem-semantik tomonlari diagramma, jadvallarda yoritib berilgan;

olmoshlarning semantikasi va strukturasi bilan bog‘liq jihatlari hamda xususiyatlari tilshunoslik, nazariy va amaliy grammatika, leksikologiya kabi fanlardan yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining takomillashuviga yordam berishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi nemis va o‘zbek tillarida olmoshlarning qiyosiy tadqiqi jahon tilshunoslarining so‘z turkumlari, xususan, olmosh so‘z turkumi haqidagi nazariyalariga asoslanganligi, misollarning nemis va o‘zbek tillaridagi matnlardan olinib qiyosiy-tanqidiy o‘rganilganligi, nazariy ma’lumotlarning ilmiy manbalariga asoslanganligi, tanlab olingan badiiy matnlarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, ilmiy xulosa va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, hamda keltirilgan dalillar respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlarida, OAK ro‘yxatidagi maxsus va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining **ilmiy ahamiyati** shundan iboratki, nemis va o‘zbek tillarining qiyosiy, tarixiy grammatikasi bo‘yicha oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida, o‘quv kurslari va darsliklar yaratishda, shuningdek, ikki tilda qiyosiy grammatika, uslubiy qo‘llanma yaratishda nazariy asos bo‘lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, nemis tilini mustaqil o‘rganish, o‘quv qo‘llanmalari, ma’lumotnomalar, ikki tilli grammatik lug‘atlar va shu kabi boshqa o‘quv manbalarni tuzish uchun ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot materiallari oliy ta’lim tizimida “Nazariy grammatika”, “Qiyosiy tilshunoslik”, “Tarjimashunoslik”, “Leksikologiya”, “Matn tahlili” kabi fanlardan darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, “Lingvistik tahlil metodlari”, “Matn lingvistikasi”, “Til tarixi”, “Ikkinchi chet tili” kabi maxsus kurslarni o‘qitishda, bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalarini yozishda **ma’ruza va seminar darslarining o‘tkazilishida** muhim amaliy material bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Nemis va o‘zbek tillarida olmoshlar tizimining qiyosiy-tipologik tadqiqi bo‘yicha uslubiy va amaliy takliflar asosida:

nemis va o‘zbek tillarida olmoshlarning morfosintaktik, leksik, semantik ifodalanish xususiyatlari asosida ishlab chiqilgan tahliliy-qiyosiy jadval, sxema va taqqoslovchi statistik-diagrammalar, ilmiy materiallar asosida tarixiy-nazariy lingvistik qarashlar va metodologik yondashuvlar asosida yaratilgan olmoshlarning semantik modeli, nemis va o‘zbek tillaridagi olmoshlarning qiyosi asosida ularga xos sintaktik, semantik, kommunikativ xususiyatlar dalilanganiga oid ilmiy yangilik va xulosalardan O‘zRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan 2017-2020-yillarda bajarilgan FZ-2016-0908165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusida bajarilgan fundamental loyihada foydalanilgan (T.N.Qori Niyoziy nomidagi Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filiali 2024-yil 9-iyuldagi 285/1-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, fundamental loyiha doirasida tayyorlangan metodologik yondashuvlar

asosida olmoshlarning semantik, qiyosiy, umumiy-leksik tizimdagi o'rnini belgilash matn va tilshunoslik haqidagi olib borilgan tadqiqotlarning ilmiy saviyasini oshirishga erishilgan;

qardosh bo'lmagan tillardagi olmoshlarning deytik va anaforik funksiyalari o'rganilgan, shu asosda nemis va o'zbek tillaridagi deytik birliklar va anaforaning turlariga aniqliklar kiritilgan, umumiy va xususiy kategoriyalari, o'xshashlik va nomuvofiqliklarni ochib berilganligi haqidagi xulosalar va ilmiy yangiliklardan "O'zbekiston – Germaniya" do'stlik jamiyati tomonidan tashkil etilgan grant loyihasi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston jahon tillari universitetining 2025-yil 28-apreldagi OD-19 ma'lumotnomasi). Natijada, til o'rganuvchilarning bilimlarini tizimli rivojlantirish yanada takomillashuvi ta'minlangan;

olmoshlarning semantik tasnifi ishlab chiqilgan va grammatik kategoriyalari (jonlilik/jonsizlik, aniqlik/noaniqlik, son/jins, predmetlik/nopredmetlik) shakllarining morfologik ifodalanish usullari, grammatik shakl va struktur tarkibidagi farqlanish funksional-semantik jihatdan badiiy matnlar asosida qiyosiy tahlillar orqali isbotlanganiga oid yangilik va xulosalardan "Samarqand viloyati teleradiokanali" davlat muassasining "Assalom, Samarqand!" ko'rsatuvining navbatdagi soni ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 24-iyuldagi 01-07/201-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu teleko'rsatuv va radioeshittirish mazmunan takomillashtirilib, ilmiy ma'lumotlar bilan boyitilishiga erishilgan;

pronominalizatsiya va depronominallizatsiya jarayonlarining nemis va o'zbek badiiy matnlarida qo'llanilishi bo'yicha tizimlashtirilgan materiallar tarjimasini, ma'nosi kategorial farqlanib, muammolarni hal qilishning yangi tamoyillari asoslab berilgan yangilik va xulosalardan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan № IL-402104209 raqamli "Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish" nomli fundamental ilmiy tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanildi (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 19-iyundagi 01/4-2614-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida shakllantirilgan elektron platformadan o'rin olgan nemis va o'zbek tillarida olmoshlarning lingvistik lug'atining takomillashuviga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari ilmiy ma'ruzalar ko'rinishida 5 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 19 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 142 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Nemis va o‘zbek tilsunosligida olmoshlar tadqiqining nazariy asoslari”** deb nomlangan. Bobning *“Olmoshlarning lingvistik talqini va so‘z turkumlari tizimidagi o‘rni”* nomli birinchi paragrafida dunyo tilshunosligida, xususan, nemis va o‘zbek so‘zlarni turkumlarga ajratish tarixi qanday borganligi, ikkala tilshunoslikda masalaning tadqiqi darajasi haqida fikr yuritiladi.

Tilshunoslikda so‘zlarni turkumlarga ajratish masalasi muhim jarayon sifatida qaralgan. Bunga Qadimgi asrlarda ham, O‘rta asrlarda ham⁷ alohida ahamiyat qaratilgan. Jahon tilshunosligida ayniqsa, V.Gumboldt, F.Sossyur, N.Chomskiy⁸ kabi tilshunoslarning so‘zlarni klassifikatsiya qilish, turkumlarga ajratishda xizmatlari katta.

Olmosh yunoncha *antonymia* yoki lotincha *pronomen*, shu nomlar o‘rnini bosuvchi tushunchasini bildiradi. Zamonaviy G‘arb tillarida olmoshning klassik atamaları (birinchi navbatda lotin tili), masalan, fransuzcha saqlanib qolgan: *pronom*, inglizcha *pronoun*, fin tilida *pronomini* masalan, ruscha “местоимение”, vengercha *névmás* yoki ularning tarjimalari ishlatiladi. Ushbu ishda o‘zbek tili bilan nemis tili taqqoslanganda bu atamaning ma‘nosi biroz kengaygani ko‘zga tashlanadi. Dionisius Traksning (mil.avv. 100-yillar) grammatik nazariyalarida “pronomina” qadimgi yunon tilidagi “antonymia” so‘z turkumining lotincha tarjimasi, sakkizta so‘z turkumining biri sifatida qayd etadi. Lekin bu so‘z aynan qaysi so‘z turkumining o‘rnida “Stellvertreter” kelishi masalasi tarixan mavhum bo‘lib qolgan. Olmosh (Pronomen) atamasi nemis tilida so‘z turkumi sifatida dastlab “Fürwort” so‘zi bilan teng ma‘noda grammatikada ilmiy atama sifatida taxminan 1400-yillarda qabul qilingan. Lotinchada *prōnōmen*, lotincha *prō* “uchun, o‘rniga” va *nōmen* “ot, belgi” so‘zlaridan kelib chiqqan. *Pronomen* atamasi esa, XV-XVI asrlarda qo‘llangan. Bu tushuncha Grammatikachilar maktabida “Fürwort” ya’ni “so‘z o‘rnini bosuvchi” (“so‘z uchun”) atamasi bilan asosiy o‘rinda turadi. Bu tushuncha hind tilshunosligida olmosh *sarva-nāman* “har qanday tushunchaning ifodasi” deb ataladi⁹.

O‘zbek tilida *“olmosh”* so‘zi asli *qo‘l so‘ziga ol-*, *“o‘ziniki qil-*“ ma‘nosini anglatuvchi *al-* fe‘lining ‘takror’ ma‘nosini ifodalovchi *-ma* qo‘shimchasi qo‘shilgan *alma-* shaklidan *-sh* harakat nomi qo‘shimchasi bilan hosil qilingan.

⁷ Qarang: Yo‘ldoshev M.M., Azimova Z.I. *Liber linguae latinae* – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2025. – 226 b.


⁸ Qarang: Chomsky N. *Aspects of the theory of Syntax*. – Chicago: MIT Press, 1965. – 335 p.

⁹ Qarang: Майтинская К.Е. Местоимения в языках разных систем. – М.: Наука, 1969. – 308 с.

keyinchalik harakat nomi shaklidagi fe'l otga ko'chgan; o'zbek tilida *a* unlisi *â* unlisiga almashgan: (al- + ma = alma-) + sh = almash > *âlmâsh* degan taxminlar mavjud. Ayrim manbalarda esa atama fors-tojik tilidan kirib kelgan deyiladi. Abdurauf Fitrat "ot olishmalari", "so'rash olishmalari" va "yaqin ko'rsatkichlar" deb, Elbekning "Lug'at va atamalar" asarida olmoshni ilmiy, tilshunoslikka oid atamalar qatorida "olmosh-zamir" deb atashni taklif qilgan¹⁰.

Miloddan avvalgi I asrda yozilgan sanskrit grammatikasida Yaska so'z turkumlarini to'rtga ajratadi:¹¹ 1. *nāma* – *Nomen* – *ot*; 2. *ākhyāta* – *Verben*– *fe'llar*; 3. *upasarga* – *Präverben oder Präfixe* – *ravishlar* yoki *prefikslar*; 4. *nipāta* – *Partikeln* (*invariante Wörter, vielleicht auch Präpositionen*) – (*o'zgarimas so'zlar, yordamchi so'zlar, ehtimol, old qo'shimchalar ham*). Bu to'rtta guruh ikkita bo'lingan: *o'zgarimas (ot va fe'llar)* va *o'zgaruvchan so'zlar* (*ravish va yordamchi so'zlar*)¹².

Kratil dialogida gap *fe'l [rhêma]* va *ot[ónoma]* birikmasidan shakllanishini yozgan edi¹³. Aristotel keyinchalik [*sindesmos*] ("bog'lovchi so'z", ya'ni yordamchi so'zlar sinfini qo'shdi. Miloddan avvalgi II asr oxirida tasniflash sxemasi Dionisios Traks "Téchnē Grammaré"¹⁴ asarida so'z turkumlari sakkiz toifaga ajratildi. Nemis tili aynan flektiv til tuzilishi bilan ajralib turadigan tillar kabi flektivlik mezoniga asosan tasnif qilinadi. Ba'zi tillarda ismlar (ya'ni otlar) va fe'llar (yoki farq juda kam) o'rtasida hech qanday farq yo'qligi da'vo qilingan, shu jumladan: *grenland, riau indonez*. Masalan, *fin va mandarin* tillarida olmosh so'z turkumi deyarli uchramaydi.



1.1-rasm. Nemis va o'zbek tillarida so'z turkumlarining qiyosiy farqlanishi

¹⁰ Qarang: Fitrat Tanlangan asarlar. – Toshkent. Ma'naviyat, 2006. – B. 169. Ko'no'v A.H. Ўзбек тили грамматикаси. I Том. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 339-348.

¹¹ Qarang: Ehlich K: Zur Geschichte der Wortarten. In: Ludger Hoffmann (Hrsg.): Handbuch der deutschen Wortarten. – Berlin: Walter de Gruyter, 2009 – S. 51–94.; Knobloch C., Schaefer B. Kriterien für die Definition von Wortarten. In: Booij G., Lehmann Ch., Mugdan J. Morphologie / Morphology. Ein internationales Handbuch zur Flexion und Wortbildung / An International Handbook on Inflection and Word-Formation. Band 1 – Berlin: Walter de Gruyter, 2000. – B. 674–692.

¹² Qarang: Matilal B.K. The word and the world: India's contribution to the study of language. – Oxford: Oxford University Press, 1990. – 286 p.

¹³ Qarang: Platon. Cratylus bei Perseus. – Chicago: University of Chicago, 2015. – 431 p.


¹⁴ Qarang: Pape W. Handwörterbuch der griechischen Sprache. – Braunschweig: Vieweg, 1914. – Band 2, S. 1006.

XIX asrning birinchi yarmidan boshlab “*pronominal*” tushunchasi grammatika nazariyasida alohida kategoriya sifatida ko‘plab muhokama va qayta ko‘rib chiqishlarga sabab bo‘lgan. Biroq tarixiy-etimologik jihatdan, nemis tilidagi va boshqa Hind-Yevropa tillaridagi pronominal birliklar o‘rtasida yaqin aloqalar mavjudligi rad etilmaydi. Ularning aksariyati umumiy ildizlarga borib taqaladi.

Olmoshlar o‘z mazmuni, sintaktik shakl va ifodalayotgan grammatik kategoriyalariga ko‘ra alohida so‘z turkumini hosil qiladi. Nemis va o‘zbek tillarida olmoshlar ko‘plab o‘ziga xos xususiyatlarga, o‘xshash va farqli jihatlarga ega. Ko‘plab olimlar M.Asqarova, R.Qo‘ng‘urov, Y.Tojiyev, I.Suyarov, N.Rahmonov, Q.Sodiqov, I.Mirzayev va boshqalarning¹⁵ ishlarida olmosh bilan bog‘liq masalalar yoritilgan.

Chomskiy “Binding Theory”¹⁶ (o‘zaro bog‘liqlik nazariyasi) orqali olmoshlarning boshqa grammatik elementlar bilan bog‘lanishi qoidalarini tahlil qiladi. Ushbu nazariya olmoshlarning referensial rolini va grammatik tizimdagi pozitsiyasini aniqlashga yordam beradi: *Stefan denkt, dass er sich klug ist. (Stefan aqlli ekanligini o‘yladi.)*

Bu jumlada “er” olmoshi “Stefan” bilan bog‘langan bo‘lib, bu bog‘liqlik semantik-anaforik ma‘lumotni aniqlashga xizmat qiladi. Hozirgi tasnif usullariga ko‘ra, olmoshlarning ayrimlari mustaqil so‘z turkumi sifatida qaraladi:



1.2-rasm. Nemis va o‘zbek tillarida so‘z turkumlarining nomlanishi

¹⁵ Qarang: Asqarova M. Olmoshlar haqida baʼzi muhozaalar. *Ўзбек тили ва адабиёти*. – Тошкент, 1969. – Б. 27-30.; Abduazizov A. *Tilshunoslik nazariyasiga kirish*. – Toshkent: Sharq, 2010. – 175 b.; Irisqulov M. *Tilshunoslikka kirish*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 264 b.; Jamolxonov H. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. – Toshkent: Talqin, 2005. – 271 b.; Koнонов A.H. *Ўзбек тили грамматикаси I том*. – Тошкент: Фан, 1975. – 446 б.; Суяров И. *Местоимение в современном узбекском литературном языке: Дисс. ... канд. филол. наук*. – Самарканд: СамГУ, 1965. – 294 с.; Rahmonov N., Sodiqov Q. *O‘zbek tili tarixi*. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2009. – 129 b.; Mirzaev I.K. *Sўzning denotativ maʼnolari haqida // Филологиянинг долзарб муаммолари: Илмий мақолалар тўплами*. – Самарқанд: СамДУ, 2011. – Б. 18-21.

¹⁶ Qarang: Chomsky N. *Aspects of the theory of Syntax*. – Chicago: MIT Press, 1965. – 335 p.

Boshqa olmosh turlari, *shaxs deyktik olmoshlari (Anopher Person Deixis)* va *obyekt deyktik olmoshlari (Objekt Deixis)* kabi nomlar bilan qayd etilgan.

Olmosh (Pronomen) ismlarning o‘rnini bosadigan so‘zlar bo‘lib, ular nafaqat grammatik, balki sintaktik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Nemis tilshunoslarining asarlarida olmoshlar haqida batafsil izohlar berilgan. Nemis tilida so‘z turkumlari grammatik belgilariga ko‘ra leksemalar (lexikalische Wörter) o‘zgaruvchan shakllarning bajaruvchi vazifasiga ko‘ra, *leksik sinf yoki leksik so‘z turkumlariga* ajratiladi.

Ko‘rinadiki, so‘z turkumlarini o‘rganishning ildizlari uzoq tarixga ega bo‘lib, qadimgi falsafadan to zamonaviy lingvistikagacha bo‘lgan davrni qamrab oladi.

Ikkinchi bob “**Nemis va o‘zbek tillarida olmoshlarning grammatik kategoriyalar orqali ifodalanishi**” deb nomlangan va uch paragrafdan iborat bo‘lib, *olmoshlarda aniqlik/noaniqlik, predmetlik/nopredmetlik, son va jins kategoriyalarini* o‘rganishga bag‘ishlangan.

Til qurilishida morfologik va sintaktik vositalar doirasiga kiruvchi har xil shakllar muayyan bir funksiyani bajaradi. Bunday shakllar tegishli grammatik birlik umumlashgan va abstrakt semantik mazmuni ifodalashi mumkin. Tilshunoslikda „*kategoriya*“ tushunchasi – ma’lum umumiy xususiyatlarga ega bo‘lgan til birliklari guruhidir. Bu tushuncha tilni tahlil qilish va tushunishda yordam beradi. „*Kategoriya*“ so‘zi yunoncha “*kategoria*” so‘zidan olingan bo‘lib, aslida „*ifoda*“, „*guruh*“ yoki „*turkum*“ degan ma’noni anglatib, ma’lum o‘xshash belgilar asosida narsalar yoki tushunchalarni guruhlashdan iborat.

Zamonaviy tadqiqotchilar (masalan, Komri, Korbett, Vyashbitska) til tipologiyasi va universal grammatik kategoriyalar (son, jins, kelishik va boshqalar) ni tadqiq qilib, ularni quyidagi guruhlarga bo‘lganlar: a) grammatik (morfosintaktik) shaxs-son, jins, kelishik, zamon, aspekt, mayl, aniqlik va noaniqlik kategoriyalari; b) leksik kategoriyalar (so‘z turkumlari); d) semantik (ma’no asosida) kategoriyalar; e) sintaktik (gapdagi so‘z birikmalari); f) pragmatik kategoriyalar.

2.3.5-jadval

Tillar orasidagi kategoriya tafovutlari

Kategoriya	Nemis tili	O‘zbek tili
Son	Birlik: <i>ich</i> (men), <i>du</i> (sen), er, sie, es	Birlik: <i>men, sen, u</i>
Shaxs	Ko‘plik: <i>wir</i> (biz), <i>ihr</i> (sizlar),	Ko‘plik: <i>biz, sizlar, ular</i>
Kategoriya	Jonli predmet (animatsiya) <i>die Hunde</i> (itlar)	Jonsiz predmet (inanimatsiya)
	<i>Der Hund schläft.</i> (It uxlayapti.) <i>Die Hunde schlafen.</i> (Itlar uxlayapti) <i>Der Mann kommt.</i> Erkak keldi.	<i>Das Buch liegt auf dem Tisch.</i> <i>Kitob stol ustida yotibdi.</i>
Aniqlik	Er ist mein Chef.	Es ist sehr intelligent.
Noaniqlik	<i>Ein Mann kommt.</i> (Bir erkak kelmoqda.) Kimdir keldi.	Das Auto fährt. Mashina yurdi.

Definitheit (nemischa) yoki Definiteness (inglizcha) – bu tilshunoslikda *aniqlik* tushunchasini bildirib, biror so‘z yoki birikma tinglovchi va so‘zlovchiga tanish yoki ma‘lum ekanini bildiradigan grammatik yoki semantik kategoriyadir.

Aniqlik/noaniqlik (“*Definitheit*”) atamasi dastlab Aristotel asarlarida uchraydi, lekin u ilmiy atama sifatida XX asrda V. fon Humboldt tomonidan nazariy asosda ishlatilgan. Zamonaviy tilshunoslikda F.de Sossyur, N.Chomskiy, C.Layonz “*Definiteness*” (1999), I.Haym (“*The semantics of definite and indefinite noun phrases*”) B.Parte kabi olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. I.Haymning fikricha, definite (aniq) nom frazalari o‘zgaras, ma‘lum va aniq ma‘lumotlarni beradi, bu esa sintaksis va semantika nuqtayi nazaridan farqlanishlarga olib keladi. I.Haym “*strong uniqueness condition*” ya‘ni, agar biror narsa definite (aniq) bo‘lsa, u faqat bitta predmetga mos kelishi kerakligini ta‘kidlagan¹⁷.

B.Parte *aniqlik/noaniqlik* kategoriyasini formal semantika (*formal semantics*) nuqtayi nazaridan o‘rganagan. *Aniqlik/noaniqlik* kategoriyasining birinchi belgisi aniq va noaniq artikldagi otlarni o‘zaro qarama-qarshi qo‘yishdir. Olmoshlar konkret ma‘no bilan mavhum (abstrakt) ma‘noning almashinib qo‘llanilishini xarakterlovchi so‘zlardir. Ular *predmet, shaxs, belgi va miqdorni* boshqa so‘z turkumlari bilan munosabatga kirgan holda ifodalaydi. Olmoshning konkret ma‘nosi kontekst, situatsiya, nutq jarayonida ishtirok etuvchilarning munosabatiga qarab aniqlik kasb etadi.

J.Shendels¹⁸ *aniqlik/noaniqlik* kategoriyasining asosiy belgisi ularni o‘zaro qarama qarshi qo‘yish orqali aniqlashni taklif qiladi. Kononov¹⁹ o‘zbek tilida ko‘rsatish olmoshlarini ma‘nosiga ko‘ra ikki turga bo‘ladi: konkret (aniq) *shu, o‘sha*; konkret bo‘lmagan *u, bu*. Konkret ma‘noni ifodalovchi ko‘rsatish olmoshlari masofa va vaqtning yaqin yoki uzoqligiga ko‘ra ikki xil bo‘lishi mumkinligini ta‘kidlaydi: a) *bu, shu* so‘zlovchiga yaqinda bo‘lgan voqeani bildiradi: *shu uyda turaman*; b) *o‘sha* olmoshi so‘zlovchidan uzoqroqdagi predmetni yoki avvalroq bo‘lgan voqeani bildiradi. Nemis va o‘zbek tillarida aniqlik va noaniqlikni ko‘rsatish uchun farqli grammatik vositalar ishlatiladi (2.1.1-jadval).

J.Shendels olmoshlar narsa, predmet va uning belgilarini nomlamasdan (kitob-u) ko‘rsatishini yoritadi. Bunda ular gap tuzilishi, matn, aniq vaziyatlarni ifodalashda, nutq jarayonida qo‘llashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan umumiy ma‘noga egaligi ko‘rsatiladi. Nemis tilida olmoshlar ot yoki sifat o‘rniga kelishiga qarab otlashgan yoki sifatlashgan olmoshlarga ajratiladi. Otlashgan va sifatlashgan olmoshlarga quyidagilar kiradi.

“Tilning predmetligi” (nem. Gegenständlichkeit der Sprache) – bu tilning atrofda narsalar yoki voqealarga ishora qilish va ularni tasvirlash qobiliyatini anglatib, til falsafasi va tilshunoslikdagi markaziy mavzudir.

¹⁷ Qarang: Heim I. The semantics of definite and indefinite noun phrases. – München Ludwig-Maximilians-Universität at 1982. – P. 27.

¹⁸ Qarang: Shendels J. Deutsche Grammatik. – Москва: Высшая школа 1982. – S. 183.

¹⁹ Qarang: Кононов А.Н. Ўзбек тили грамматикаси I том. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 339-348.

2.1.1-jadval


Olmoshlarning leksik-semantik ma'no xususiyatlari

Olmosh turlari		Aniq		Noaniq	
Nemis tilida	O'zbek tilida	Nemis tilida	O'zbek tilida	Nemis tilida	O'zbek tilida
<i>Personalpronomen</i> (<i>persönliche Fürwörter</i>)-	<i>kishilik olmoshlar</i>	<i>Ich, du, er, sie, wir, ihr, Sie, sie</i>	<i>Men, sen</i>	<i>es</i>	<i>u</i> (<i>jins kategoriyasi yo'q</i>)
<i>Demonstrativpronomen</i> (<i>hinweisende Fürwörter</i>)-	<i>ko'rsatish olmoshlari</i>	<i>diese, dieser, jener, solcher</i>	<i>bu, shu</i>		<i>Ana u, u, o'sha</i>
<i>Possessivpronomen</i> (<i>besitzanzeigende Fürwörter</i>)	(o'zbek tilda egalik olmoshlari yo'q)	<i>Mein, dein,</i>	–	<i>Sein, ihr</i>	–
Nemis tilida	Nemis tilida		O'zbek tilida	nemis tilida	o'zbek tilida
<i>Relativpronomen</i> (<i>bezügliche Pronomen</i>)	<i>nisbiy olmoshlar o'zbek tilida yo'q</i>			<i>Einer, eine, eines</i>	
<i>Indefinitpronomen</i> (<i>unbestimmte Fürwörter</i>) <i>noaniq olmoshlar</i>	<i>gumon olmoshi</i>			<i>Alle, beide, Jemand, einige, etliche, irgendwann, irgendwo, irgendein, ein bisschen, nichts, etwas;</i>	<i>kimdir, nimadir, qandaydir, qanchadir, qayergadir, negadir</i>
<i>Reflexivpronomen</i> (<i>rückbezügliche Pronomen</i>)	<i>o'zlik olmoshi</i>	<i>Selbst, sich,</i>	<i>o'zi</i>		
<i>Interrogativpronomen</i> (<i>Fragefürwörter</i>)	<i>so'roq olmoshlari</i>			<i>Wer? Was? Wie? Wann? Wo?</i>	<i>Kim? Nima? Qayer? Qancha?</i>
<i>Rezipropronomen</i>		<i>Einander</i>			

Tilning predmetligiga oid nazariyalardan biri “Organon modeli”da Karl Byuler²⁰ tilni uch asosiy funksiyaga ajratadi: *tasvirlovchi (darstellende)*, *ifoda*

²⁰ Qarang: Bühler K. Sprachtheorie. Die Darstellungsfunktion der Sprache. – Leipzig: Bertelsmann Verlag, 1941. – S. 256.


(*Ausdrucks-*) va *ta'sir etuvchi (Appellfunktion)*. Tilning tasvirlovchi funksiyasi, aynan, tilning predmetga yo'naltirilganligini bildiradi – til bu orqali haqiqiy dunyoga ishora qiladi. E.Benvenist – til orqali subyektivlikni, Sepir Uorf gipotezasi (ya'ni til tuzilmasi insonning fikrlashi va dunyoni qabul qilishiga ta'sir qiladi, til orqali dunyo har xil tarzda tasvirlanadi)ni, F.de Sossyur strukturalizm (asosida til va real obyekt o'rtasidagi aloqa esa ixtiyoriy (arbitrar)ni ilgari suradilar. R.Honigsvald esa predmetlik va aniqlik til orqali faqat narsalarni emas, balki ularning xususiyatlari va o'zaro munosabatlarini ham belgilashi mumkinligini, til – bu tushunish va aniqlik vositasi; u orqali obyektlar ongda tushunarli bo'lishini ta'kidlaydi.



2.1-rasm. Olmoshlarda tur jihatdan qiyosiy farqi

Hind-yevropa tillaridagi olmosh tizimlarini taqqoslovchi tadqiqotlar ikki jihatni ko'rsatadi: a) hind-yevropa tillaridagi olmoshlar lug'at tarkibi, asosan, qadimiy ildizlarga borib taqaladi. So'z turkumining tarkibi tilshunoslik tizimining kichik qismlarida ko'rinadigan shakl o'xshashliklari va etimologik bog'liqliklar orqali aniqlanadi. Bunday yagona xususiyatni, masalan, *interrogativ (so'roq)*, *indefinit (noaniq)* va *negativ (inkor)* olmoshlar ko'rsatadi. Ular boshqa olmosh turlaridan son (birlik/ko'prik) yoki jins farqlari bilan emas, balki shaxs va predmetga nisbatan ikki toifali tizim ("*Zweiklassensystem für Personen und Nichtpersonen*") orqali farqlanadi. Bu olmoshlar umumiy shakllarda faqat shaxsga yoki predmetga nisbatan murojaatni bildiradi va mavjudlik, so'rash, fikr yuritish yoki istisnoni ko'rsatish uchun xizmat qiladi; b) parallelliklar semantik-funksional jihatdan ham, "*qatorlar*" (*Reihen*) tashkil topishigacha ko'zga tashlanadi.

Nemis tilida egalik olmoshlari semantik, morfologik o'ziga xos xususiyatga ega. O'zbek tilida esa egalik olmoshi mavjud emas. Egalik olmoshlari o'rnida egalik qo'shimchalari qo'llanadi. Lekin ba'zi olimlar "meniki" so'zini egalik olmoshiga kiritadi.



2.2-rasm. Olmoshlarda son va tur jihatdan qiyosiy farqi

Nemis tili jinsni ajratadigan til bo'lib, har bir egalik olmoshi egasining jinsiga qarab o'zgaradi. O'zbek tilida esa jins ajratilmaydi, bu tilning soddalashtirilgan strukturasi ko'rsatadi. Nemis tilida egalik olmoshlari o'z egasini ko'rsatishda muhim vosita sifatida ishlatiladi va ular tilning semantik va sintaktik tizimida markaziy o'rin tutadi.

2.3.1-jadval

Nemis va o'zbek tillarida son-jins differensiyasi

Kategoriya	Nemis tili	O'zbek tili
Jins (Geschlecht-rod) <i>Er/sie/es</i>	der Mann-erkak (<i>er</i>) (<i>maskulin</i>), die Frau -ayol (<i>sie</i>) (<i>feminin</i>), das Buch -kitob (<i>es</i>) (<i>neuter</i>)	Jins aniq farqlanmaydi, umumiy olmoshlar ishlatiladi
Son (Zahl)	<i>die Männer</i> (erkaklar), <i>die Frauen</i> (ayollar), <i>die Kinder</i> (bolalar)	<i>ular</i> (u), <i>bular</i> (bu)
Aniqlik (Definitheit)	Jinsni aniqlash kerak: <i>dieser, jener</i> (bu, ana u, maskulin), <i>diese, jene</i> (bu, ana u, feminin), <i>dieses, jenes</i> (bu, ana u neutrum)	Jinsni farqlash talab qilinmaydi, <i>bu</i> olmoshi umumiy ishlatiladi
Noaniqlik (Undefinitheit)	<i>Einer, jemand, einige,</i>	birov, kimdir, bir qancha

Nemis tilida Genitiv (qaratqich kelishigi)dagi *mein, dein* egalik olmoshlari qadimgi olmoshlar hisoblanadi. Lekin til taraqqiyoti jarayonida ba'zi so'zlar tarkibiga kirib, butun bir so'zni ifodalagan: *Vergissmeinnicht* (*meni unutma, gul nomi*).

Jins va son kategoriyalari, asosan, grammatik jihatdan olmoshlarning shakllanishini va gapdagi predikatlar bilan o'zaro aloqasini belgilaydi.

Jins kategoriyasi biror predikat yoki olmoshning jinsini belgilaydi. Nemis tilida jins o'ta muhim bo'lib, bu nafaqat predikatlarda, balki olmoshlar va artikllarda ham aks etadi. O'zbek tili jins kategoriyasiga ega emas, faqat ba'zi hollarda kontekstga qarab jins aniqlanadi.

Qadimgi nemis tilida XII asrgacha rod kategoriyasi rivojlanmagan, egalik olmoshlari eski nemis tiliga nisbatan yaqin vaqtdagi kishilik olmoshidan olingan, ammo so'nggi muhokama holati kontekstida bu dalilga ko'proq tarixiy jihatdan

yondashuvlarga asoslanib berilishi kerak. Nemis tilidagi olmoshlarning evolyutsiyasi til tarixining murakkab jarayonlarini aks ettiradi. Qadimgi va o'рта nemis tillarida olmoshlar morfologik jihatdan ancha boy bo'lib, ko'plab shakllar va kelishik tizimiga ega edi. Biroq, vaqt o'tishi bilan tilning soddalashishi, sintaktik va semantik o'zgarishlar olmoshlarning morfologiyasini soddalashtirdi va ularga yangi funksiyalarni o'zlashtirish imkonini berdi²¹. Hozirgi nemis tilida esa olmoshlar, asosan, shaxs va ko'plik shakllarida mavjud bo'lib, sintaktik va semantik vazifalarni bajarishga qaratilgan. Olmoshlarning semantik roli yanada kuchaygan, chunki ular tilning sintaktik va pragmatik vazifalarini bajarishda muhim rol o'ynaydi. Nemis tilidagi otlarning rodini aniqlashda aniq qoidalar tizimi yo'q (ba'zi otlargina so'z oxiridagi qo'shimchalar bilan umumiy aniqlanishi mumkin). Jins masalasida o'zaro paralellik yo'q, tabiiy jins va grammatik jins o'zaro mos kelmaydi. Masalan, *der Mann, die Frau* so'zlarida jinsga moslik kuzatilsa, *das Weib, das Mädchen, das Fräulein* so'zlarida rod va jins (Genus und Sexus) butunlay farq qiladi. Ko'p sohalarda shaxsni aniqlashda, qisman hayvonlarda, asosan, ma'lum moslikka e'tibor qaratiladi. Nemis tilidagi otlar tabiiy jins (*erkak, ayol, narsa*) orqali farqlanmaydi²², balki har bir ot alohida rod, (artikl orqali aniqlanadigan), ko'plik yasalishi, kelishiklarda turlanishi, boshqa so'z turkumlari bilan munosabatga kirishganda sonda moslashishi olmoshlarda son kategoriyasi alohida ahamiyatga ega. Masalan, *unser (bizning), euer (sizning)* va *ihr (uning)* ko'plik shakllari har bir shaxs va kelishik uchun o'zgaradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Olmoshlar transpozitsiyasi: pronominalizatsiya va depronominallizatsiya hodisasi”** deb nomlangan. Bobda nemis va o'zbek tillarida umumiy va xususiy kategoriyalar, deysis va anafora, pronominalizatsiya va depronominallizatsiya kategoriyalari tahlil qilingan.

Olmosh boshqa so'z turkumlaridek, obyektini bevosita atamay, mazkur nutq aktida uni ko'rsatib turadi. Har qanday nutq akti esa *so'zlovchilar, vaqt, o'rin* hamda mazkur aktdan oldingi va undan keyin bildiriladigan fikrga munosabat orasida rollarning taqsimlanishi bilan tavsiflanadi. Obyektlarni bilvosita ko'rsatishning ikki usuli bor: 1) *deysis* – nutq vaziyati markazida turgan so'zlovchini ko'rsatish; 2) *anaforik* – vaqt va o'ringa nisbatan munosabat.

